# O'zbekiston Respublikasi

# Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

# Qarshi davlat universiteti

# Nemis tili va adabiyot kafedrasi

Mahmudova Mehriniso Bahodirovna

**“5220100 - nemis filologiyasi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“Nemis tilida ilovali elementlar tahlili” mavzusida yozgan**

# B I T I R U V M A L A K A V I Y I SH I

**Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi M. T. Rahimova**

**Qarshi 2013-2014**

# Mundarija

Kirish……………………………………………………6

I Bob

1.1. Ilova qurilma hodisasi haqida……………………………………11

1.2. Ilova qurilma hodisasini o'rganish masalasi……………….16

II Bob

2. Fe'l-kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar……………………………………………………25

2.1. Ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar……………...30

2.2 . Ikkinchi darajali bo'laklar bilan ifodalangan ilovali elementlar……………………………………………………40

XULOSA……………………………………………………………….46

ADABIYOTLAR RO’YXATI……………………………………………52

# Kirish

Prezidentimizning mustaqillikning birinchi yillaridagi eng og'ir, tahlikali, murakkab jarayonlaridan tortib, to hozirgacha yaratilgan barcha asarlari davrning tarixiy zaruriyati tufayli yuzaga kelgan. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi ham xuddi shunday tarixiy zaruriyat zamirida yaratilganligi bilan beqiyos ahamiyatga ega. Kitobda asosan 1989-1992 yillarda, mamlakat tahlikali, keskin, o't-olov halqasi ichida turgan davrdagi voqeliklar bilan bog'liq tarixiy qarorlar, hujjatlarga murojaat qilinadi.Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq Prezidentimiz «O'zbekistonning kelajagi buyuk bo'ladi, bu kunlar juda yaqin» deb xalqimizni ishonch bilan ertangi kunga boshlagan edilar. O'tgan qisqa davrda o'sha afsona haqiqatga aylandi, asrlarga tatigulik olamshumul ishlar amalga oshdi.

O’zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobit qadamlar bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa “Ta'lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko’lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb - hunar egallashga bo’lgan e’tibor kuchaydi. Shu tufayli ta’lim - tarbiya tizimida yangicha ilmiy - uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi prezidentining “Barkamol avlod yili Davlat dasturi to’g’risida”gi qarorida ta’lim jarayoniga yangi axborot - kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb - hunar kollejlari, litseylari va oliy o’quv yurtlarida o’qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta’lim muassasalarining o’quv laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o’quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlashga alohida e’tibor berish lozimligi ta’kidlangan.

Bu kabi yondashuvlar o’z navbatida, o’quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg’armalarida muayyan ijobiy o’zgarishlarni sodir etadi, albatta

ularning ko’pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog’liq o’zgarishlardir. Ma’lumki, O’zbekistonda chet tilini o’rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Oliy o’quv yurtilarida, ayniqsa universitetlarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda chet tilining o’rni beqiyosdir. Til o’rganishdan asosiy maqsad, talabalarda nemis tilida gapirish ko’nik masi hosil qilishdir. Bu maqsadning ro’yobga chiqishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar juda qo’l keladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ko’pgina sohalarga e’tibor qaratildi. Ayniqsa yetuk kadrlar tayyorlashda ulkan ishlar qilinib, ularning tahsil olishida zamonaviy o’quv inshootlari qurilib foidalanishga topshirildi. Hozirda yoshlarga beriladigan e’tibor beqiyosdir. Hozirgi davrda malakali kadrlarning O’zbekiston taraqqiyotidagi o’rni ulkandir. Ayniqsa jahonda ro’y berayotgan voqeylikni ommaga yetkazishda tilchi kadrlarga ishonch berilgan.

2012 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” qarori ham xorijiy tillarni chuqur o'rgatish orqali O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, mustaqil tafakkurli, bilimli mutaxassis har tomonlama kamolotga etgan kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Bugun jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamkorlikda o'z buyuk kelajagini ko'rayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati asosiy o'rin tutadi.

Mamlakatda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini hamda, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga

yo'naltirilgan tizim yaratildi. Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Stilistikaga oid bir qator masalalar nafaqat o'zbek olimlari,balki nemis olimlari tomonidan ham o'rganilganda munozaralarga sabab bo'lib qolmoqda.Shunday bahsli,muammoli masalalardan biri ilovali elementlar haqidadir.

1. Hozirgi zamon nemis adabiyotida ilova qurilma hodisasi keng tarqalgan stilistik hodisadir. Ilova qurilmaning har-xil strukturaviy tiplari uchrab turadi. . Endilikda ilova qurilma hodisasi sintaktik – stilistik hodisa sifatida turli tillarda dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Tuzilishi jihatidan ilova qurilma ikkita katta guruhga bo'linadi.
2. Biriktiruvchi bog'lovchilarsiz ifodalanib kelgan ilovali elementlar.

Biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida ifodalanib kelgan ilovali elementlar.

Aynan shu biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida va bog'lovchilarsiz ifodalanib kelgan ilovali elementlar o'rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligidir. Nemis tilida ilovali elementlar mavzuida ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, nemis tilida bu mavzu xususida nemis va o'zbek stilist olimlari N. S. Pospelov, V. . Vinogradov, S. YE. Kryuchkov, V. G. Admoni, YE. A. Referovskaya, Yu. V. Vannikov, I. A. Popova, B. Tursunov va boshqa olimlar bunga katta hissa qushganlar.Ularning olib borgan tadqiqotlari va qilgan ishlari natijasida hozirgi o'zbek grammmatikasida keng foydalanilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Hozirgi nemis tilida ilovali elementlar ularning strukturaviy va ma'no jihatdan talqini mavzuida ish olib bormoqdaman.Bu ishimdan maqsad ilova qurilma hodisasi va ilovali elementlarning badiiy asardagi ifoda shakli va ta'sirchanligini o'rganishdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar vazifa qilib belgilandi:

-Nemis yozuvchisi L.Feuchtwagnerning "Erfolg" asarida ilovali elementlarninig ko'rib chiqish,ularni tahlil qilish;

-mavjud nuqtai nazarlarga ijodiy yondashib ,ularni guruhlarga bo'lish;

- ega va fe’l-kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elemenlarning grammatik tuzilishi va semantikasi bo’yicha tavsiflar berish;

-ilovali elementlarning nutq uslublariga bo’lgan munosabatlarini aniqlash va boshqalar.

**Ilmiy yangiligi va amaliy qimmati.** Biriktiruvchi bog’lovchilar yordamida va bog’lovchilarsiz ifodalanib kelgan ilovali elementlar o’rganish va tahlil qilish tadqiqotning ilmiy yangiligidir va shu bilan birga ilova element ega va fe’l-kesim bilan ifodalanib kelishi tadqiqot yangiligi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalari nemis tilini stilistikasi fani uchun ilmiy qiymatga ega bo’lib,ulardan nemis va o’zbek tillarida badiiy asarlarni stilistik jihatdan tahlil qilish va qiyoslash mavzuida ilmiy maqolalar yozishda,shuningdek o’quv qo’llanmalari yaratishda,shuningdek oliy o’quv yurtlarida shu mavzuda maxsus kurslar o’tishda foydalanish mumkin.Tadqiqot xulosalari nafaqat nemis tili stilistikasi uchun balki, hozirgi o’zbek adabiy tili uchun ham ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Ishning aprobatsiyasi.Bitiruv malakaviy ishi Qarshi davlat universiteti roman-german tillari kafedrasi qoshidagi “Lingvist”to’garagida,hamda 2013-2014-o’quv yilidagi talabalar ilmiy-amaliy anjumanida ma’ruza qilingan.

**Ishning hajmi va strukturasi.** Bitiruv malakaviy ish –kirish,3 ta bob,xulosa va adabiyotlar ro’yxati(53bet,22 ta adabiyot va 6 ta elektron saytdan )iborat.

## Kirish

## “Ilova qurilma hodisasi haqida”

Hozirgi zamon nemis adabiyotida ilova qurilma hodisasi keng tarqalgan stilistik hodisadir. Ilova qurilmaning har-xil strukturaviy tiplari uchrab turadi. Lekin mening bitiruv malakaviy ishimning asosiy maqsadi ilova qurilmaning ega va fe'l-kesim bilan bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarning ba'zi bir strukturaviy va ma'no to'g'risida ma'lumot berishdan iborat.

Ilova qurilma hodisasiga misollar keltirishdan avval bu hodisaga qisqacha ta'rif berish lozimdir.

1) Ilova qurilma deganda biz shunday bir sintaktik birlikni tushunamizki, bu birlik mohiyati bilan ikki qismdan:
2) asosiy ifoda

ilovali elementdan iborat bo'ladi.

Bu erda ilovali element asosiy qismga ham, struktural (tuzilishi) nuqtai nazardan ham, ham ma'no xususiyati jihatidan ham tobedir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ilovali element ikkinchi darajali xarakterga ega bo'lib, ya'ni u doim asosiy ifodadan so'ng turadi. Buni quyidagi misollar orqali tahlil qilishimiz mumkindir.

Die Veronika trug die Speisen auf. Er aß kräftig, reichlich. Trank..

( L. Feuchtwanger „Erfolg“ S. 304)

Bu ilova qurilmada ilovali element „Trank“. Demak, ilovali elementning bu erdagi asosiy kommunikativ funksiyasi shundan iboratki, u asosiy ifodada sodir bo'ladigan voqea va hodisani to'ldirib, aniqlab, izohlab, batafsilroq ifoda etib keladi. Ilovali  element tomonidan anglatilgan bunday ma'no doimo “ qo'shimcha xarakterga ega bo'ladi.

Agar ilova funksiyasida keluvchi kesimning hajmi strukturaviy nuqtai – nazardan kengaysa, albatta bu kengayshi u tomonidan asosiy ifodaga yoki uning biron – bir bo'lagiga nisbatan anglatiladigan qo'shimcha ma'no hajmi ham kengayishi mumkin.

1. Er reckte beide Arme, ließ sie auf die Bettdecke niedersausen und sank zurück … Sank. … sank. (Willi Bredel. „Verwandte und Bekannte. 3-Kapitel S, 53.).

Bu gapdagi ilovali element „Sank“. bu erda qo'shimcha ma'no hajmi kengayib kelmoqda.

Ilova qurilma hodisasi bilan ko'pgina tilshunos olimlar shug'ullanib kelmoqdalar. Bulardan yirik olimlar: N. S. Pospelov, V. . Vinogradov, S. YE. Kryuchkov, V. G. Admoni, YE. A. Referovskaya, Yu. V. Vannikov, I. A. Popova, B. Tursunov va boshqa olimlar bunga katta hissa qo'shganlar. Endilikda ilova qurilma hodisasi sintaktik – stilistik hodisa sifatida turli tillarda dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Tuzilishi jihatidan ilova qurilma ikkita katta guruhga bo'linadi.

1.Biriktiruvchi bog'lovchilarsiz ifodalanib kelgan ilovali elementlar.

2.Biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida ifodalanib kelgan ilovali elementlar.

Mening bitiruv – malakaviy ishim birikturuvchi bog'lovchilarsiz ifodalanib kelgan ilovali qurilmaning tuzilishi (strukturaviy) va ma'noli xususiyatlari, aniqrog'i ega va fe'l – kesim yordamida ifodalanib kelgan ilovali elementlarga bag'ishlangan.

Bir qator nemis adiblarning asarlari bilan tanishib chiqish natijasida fe'l- kesim formasida ifodalanib kelgan ilovali elementlar[1] boshqa strukturaviy turlar singari keng tarqalganligining guvohi bo'lamiz.

Buning isboti tariqasida quyidagi misolni tahlil qilamiz:

---

[1]Величук А.П.»О критериях присоединительности,ученые записки Азербайджанского гос…techдинс…та русского языка и литературы им.Ахундова.» Баку 1989.вып.7 стр.170-183.

2.Sie saß aufrecht und doch locker und gelassen. Wartete.

(L. Feuchtwanger. „Die Judin von Toledeo.“ Jefta und seine Tochter“ S. 427).

Bu misoldagi ilova qurilma ikki qismdan, ya'ni asosiy ifoda va ilova elementdan tarkib topgan. Bu erda “Warten” fe'li ilovali element vazifasida kelayapti. Gapdagi grammatik bo'laklar o'rtasidagi sintaktik bog'liqlik eganing umumiyligi va fe'lning grammatik formasi ya'ni ilovali element bo'lib kelgan fe'l aniqlik mayli imperfekt III- shaxs birlikda turishi bilan ifodalanib kelgan.
Fe'l – kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar turli leksik – grammatik usulda kengayib kelishi mumkin;

1. Sie telefonierte mit Kaspar Pröckl. Wartete seine Antwort nicht ab. ( L. Feuchtwanger. Erfolg. S. 653).

Bu keltirilgan misolda ko'rinishicha ilovali element funksiyasida keluvchi abwartete vositasiz to'ldiruvchi formasida keluvchi seine Antwort so'z birikmasi orqali kengaytirilgan.

2. Dr. Geyer hatte beinahe alle anwaltlichen Dinge abgegeben, kümmerte sich wenig an den politischen Geschäften, ging nicht aus seiner Wohnung. Aß, was die Haushälterin Agnes ihm vorsetzte. (L. Feuchtwanger. „Erfolg“. S. 310.).

Bu misolda ko'rinib turibdiki, agar ilovali elementlarning o'zini, ya'ni uning strukturasini kengaytiruvchi leksik – grammatik vositalarni hisobga olmaganda ilovali elementdan keyin keluvchi ergash gaplar shu ilovali elementning mazmunini to'ldirishi, aniqlash va konkretlashtirishi uchun ishlatiladi. Bu misolimiz sodda strukturaviy qurilmasiga misol bo'la oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ilovali elementlarning strukturaviy hajmlarini kengaytirishda faqatgina vositasiz to'ldiruvchilar yoki ergash gaplar kelmasdan, bu funksiyada vositali to'ldiruvchilar ham qo'llanishi mumkin.

Ilovali elementlar tarkibida keluvchi bu vositali to'ldiruvchilar har xil predloglar yordamida ifodalanishi mumkin. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misollarga e'tibor beraylik.

1. Die Haushälterin Agnes ging so weit, seine Post zu erledigen.

2. Kümmerte sich um seine Finanzen. (L. Feuchtwanger. „Erfolg“. S. 311.).

3. Die Anni zum Beispiel hätte ihm bestimmt geraten, anzunehmen. Hätte ihn bedingt mit ihrem gesunden Menschen verstand. (L. Feuchtwanger. „Erfolg“ S. 412.).

Bu misollarda ilovali elementning ham strukturaviy, ham ma'no xususiyatlarini kengaytirishda ishtirok etuvchi vositali to'ldiruvchilar har xil kelishiklarni talab qiladi. Masalan; - “um”, -„in“ predloglari yordamida kelgan vositali to'ldiruvchilar ilova elementlarini strukturaviy nuqtai – nazardan kengaytirar ekan, ular o'rin xarakteriga ega bo'lgan qo'shimcha ma'noni anglatib keladi.

Ilova element tarkibida keluvchi qolgan vositali to'ldiruvchilar mit – predlogi yordamida hosil bo'ladi.

Demak, ilovali elementlarning strukturaviy kengayishida vositasiz to'ldiruvchilarga nisbatan vositali to'ldiruvchilar ko'proq uchraydi.

Ba'zi hollarda fe'l bilan ifodalangan ilovali elementlarni tuzilishi va ma'no hajmini kengaytirishda ergash gaplar yoki boshqacha qilib aytganda ilova xususiyatlariga ega bo'lgan gaplar ishtirok etadi.

Ilovali ergash gaplar to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, mustaqil shakllangan, ifodalangan ergash gaplar[2] ilovali elementlar deb tushunishini ta'kidlashimiz lozimdir.

Bitiruv – malakaviy ishim kirish qism, ikki bob, xulosa va foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida “Bitiruv – malakaviy ishi”ning maqsadi va vazifalari yoritilgan.

Birinchi bobda tilshunos olimlarning ilova qurilma masalasiga bag'ishlangan ilmiy qarashlari haqida fikr yuritilgan.

Ikkinchi bobda fe'l – kesim bilan, uchinchi bobda esa ega bilan ifodalanib kelgan ilova elementlarning strukturaviy va ma'noviy xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Ishimning xulosa qismida esa fe'l – kesim orqali ifodalanib kelgan ilovali elementning strukturaviy va ma'noviy xususiyatlarining tahliliga qisqacha yakun yasalgan.

Ishning oxirida esa foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxati berilgan.

## I Bob

## Ilova qurilma hodisasini o'rganish masalasi.

Ilova qurilma hodisasi stilistik, ya'ni uslubiy hodisa sifatida bir qancha tillarda o'rganilgan.

Ilova konstruksiyasi to'g'risida ko'plab maqollar, dissertasiyalar yozilmoqda va bu masala ilmiy ishlarda, darslik va maxsus kurslarda yoritilmoqda. Lekin shunga qaramay, ilova qurilma hodisasining ba'zi bir tomonlari hali o'zining to'liq echimiga ega emas. Ilova qurilma va ilovali element to'g'risidagi tadqiqot ishlari

[2] Турсунов Б.»Синтаксис разговорной речи» 1980 г.62-стр.

natijasida biz sodda va murakkab strukturaviy ilova qurilma haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

Ilova element iborasi ilk bor A.F. YEfremov tomonidan ishlab chiqilgan. Ilova qurilma shunday ma'lum bo'laklarga bo'linadiki,

ularbir biriga o'xshash sodda gaplar singari ifodalanadi. Ilova qurilma atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib, bo'lish, bo'laklarga ajratish ma'nosini anglatadi.

60 yillarning oxiriga kelib ilovali qurilma atamasigako'proq e'tibor berilib, 3 qismga bo'lib o'rganilgan.

Ya'ni 1. Ilova qurilmalarning qo'shma gaplarda tuzilish xususiyati.

2. Ularning ohangga bog'liq xususiyatlari.

3. Ta'sirchanlik va uslubiy xususiyatlari.1

70 yillarga kelib ilova qurilmalarning ma'no xususiyatlariga yanada

ko'proq e'tibor berila boshlanib, tilshunoslikning bu sohasi yanada

kengayib boshladi. Bu esa ilova qurilmaning bir necha ilova

elementlarga bo'linishini aniqlab berdi.

Nemis tilshunosligida bu holat stilistik hodisa sifatida o'rganiladi. Ilovali qurilma hodisasi hozirgi nemis tili sintaksisida muhim o'rin tutadi. Nemis olimlari G. Shtarke, U. Xoberk, L. Shpiser va boshqalar ilova qurilmani gap qurilishida chetga chiqish, chetlashtirish, birikish, bo'linish yoki fikrni kengaytirib bayon etish kabi atamalar orqali tushuntiradilar. Ilmiy adabiyotlarni ko'zdan kechirish natijasida ilova qurilma hodisasi nemis tiliga xos xususiyatdir degan xulosaga kelish mumkin.

1. Ilova qurilmalar quyidagi bergilarga ega:
2. sodda yoki qo'shma gaplar og'zaki nutqda to'xtalish (pauza), yozuvda esa nuqta orqali;
3. bu bo'laklar bir-birlari bilan grammatik va semantik bog'lanish orqali;

4. ikki bo'lakli tarkibiy qism;

ajratilgan element asosiy vo'qea-hodisaniifodalanishi, bayon etilishi bilan ajratiladi.

Ilova qurilma hodisasi –bu qo'shimcha ibora bo'lmasdan,bayon

etilayotgan fikrning bo'laklarga ajratib ko'rsatilishidir. Nuqtadan keyin ifoda etiladigan fikr gapdagi asosiy ifodaga qo'shimcha ifoda hisoblanadi:

Masalan:

Ob ich das gelesen habe. Einen kleinen Artikel des Schriftstellers unter der

Unterschrift. „ Ein talentiertes Büchlein“.(E.M.Remarque)

Ein Schock konnte mich noch retten. Eine Frage. Zwei Worte.

Ba'zi ilovali elementlar to'liqsiz gaplarga ham o'xshab ketadi. Ilovali qurilmadagi gaplar asosiy ifodaga bog'liq bo'lib, u bir shaxs tomonidan bayon etilayotgan fikrni ifodalab kelib, ma'lumotlarning bir butunligini ko'rsatadi:

Masalan: Er lächelte schwach.

Ein bißchen ironisch (E.M.Remarque)

Elliptik gaplar dialogik nutqda sintaktik bir butunlikni ifoda etishda xizmat qiladi :

„Hat dich jemand gesehen?“ fragte sie.

„Ja, Eine ältere Frau“.

„Ohne Hut ?“

„Ja, ohne Hut“.

Ma'no xususiyatiga ko'ra ilovali elementlar grammatik zamon ma'nosi bir xillikni ifoda etadi. Morfologik jihatdan ilova qurilmadagi fe'lning mayl, shaxs, son kabi grammatik kategoriyalari mos kelishi lozim, aks holda u elleptik gapga aylanadi.

Ilova qurilmadagi gaplarning o'rnini almashtirish ham mumkin, bunda grammatik ketma-ketlik o'zgarmaydi.

Zwei Millionen war abgemacht. Mit Ausziehen und einem halbsündigen Gespräch nachher –Zwei Millionen mit Ausziehen und einem halbsündigen Gespräch abgemacht. (E.M.Remarque)

Ilova qurilmada bir asosiy ifodaga bir necha qo'shimcha ilovali elementlar ketma-ket kelishi mumkinki, bunda ilova qurilmadagi gapning ifoda etilishi ohang orqali oshirib bayon etiladi.

Masalan:

Was hatte ich mir von ihr versprochen ? Eine halbe Ablenkung zwischenzwei Arbeiten. Ein neues Kleid. Einen nebensächlichen Dialog in einem Cafe.

Ilova qurilmada asosiy ifoda va ilova element o'rtasidagi masofa keng bo'lishi mumkin. Bunda asosiy ifodadagi ma'noni anglash bir oz murakkab kechadigan jarayondir.

Masalan:

Beim dritten Anruf erreichte ich Mortens. Meine Frau hat telefoniert –sagte er.

Fast eine halbe Stunde. Ich konnte sie nicht unterbrechen. Über Kleider, Krieg und

Kinder. (E.M.Remarque)

Ilovali element bu kabi ko'rinish kengi abzasda ifodalikni oshirib, aynan shu qismdagi ma'lumotni alohida ajratib ko'rsatadi. Bu kabi holatlar ko'proq badiiy

adabiyotlarda kuzatiladi. Yoyiq gaplar ma'lumotni bayon etish hususiyatlari keng va rang-barangdir.

Masalan:

Ich hatte auch nicht erwartet , aber ich wusste, dass ich es ihr nie sagen durfte. Am wenigsten jetzt. (E.M.Remarque)

Eine Jüdische Familie ist hier, sagte sie dann. „Mann, Frau und Kind.“ Vor wenigen Tagen gekommen. (E.M.Remarque)

Ketma- ket keladigan ilovali elementlar keng tarqalgandir.

Vor einigen Jahren besuchte ich Vater oft, aber in letzter Zeit geschah das selten.

Höchstens zwei oder dreimal im Jahr.

Ilovali qurilmaning ma'no xususiyatlarini o'rganish jarayonida ular sintaktik strukturaning dastlab ikkinchi darajali bo'laklari, keyin esa asosiy bo'lakning kelishi kuzatiladi. Kuzatishlarimiz asosida shu narsaga amin bo'ldikki, ilova element vazifasi holning kelishi ko'proq uchraydi.

Masalan:

Das haben wir dir alles hochgetragen, sagte ich ihm. Und weisst du wann?

An deinem Beerdigungstag.

Shuningdek, ilova element vazifasida aniqlovchi ham muhim o'rin tutadi.

Masalan:

Ich zündete mir gerade eine Zigarette an, als dicht neben mir eine Limousine hart an

der Bordsteinkante bremste. (E.M.Remarque)

Musst du mich daran jetzt erinnern? An mein elendes Liebesleben und die

Einsamkeit eines Mannes im besten Alter ?

Agar asosiy ifodaga birikib kelgan ilovali elementning soni bitta bo'lsa, u holda sodda strukturaviy ilova qurilma hisoblanadi. Murakkab strukturaviy ilova qurilma deganda asosiy ifodaga birikuvchi ilovali elementlarning soni birdan ortiq bo'lgan konstruksiyani tushunamiz. Fikrimizning isboti uchun quyidagi misolni tahlil etamiz.

1. Augustin kam. Grüsste mürrisch. Machte ein paar Schritte.
2. Ging an dem Porträt vorbei blicklos (L. Feuchtwanger. „Goya“ , S.40).

Ko'rib turibmizki, bu misolimizda murakkab strukturaviy ilova qurilma bayon qilingan. Bu erda bitta asosiy ifodaga uchta o'zicha mustaqil bo'lgan ilovali elementlar birikkan. Murakkab strukturaviy ilova qurilma to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, yana ularning o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlarini ham alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bu xususiyat nimadan iborat?

1. Ya'ni biz bu erda shu murakkab strukturaga ega bo'lgan ilova qurilma tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementning bog'lanish yo'llarini ham aniqlashimiz mumkin. Bu yo'l ikki xil bo'lishi mumkin:

2. To'g'ridan – to'g'ri bog'lanish;

Ketma – ket bog'lanish;

Yuqorida keltirilgan misolimiz to'g'ridan – to'g'ri bog'lanishiga misol bo'la oladi. Chunki bu erda keltirilgan har bir ilovali element bir – biriga bog'liq bo'lmagan holda bitta asosiy ifodaga birikib kelishi mumkin.

Ketma – ket bog'lanishda esa biz boshqacha hodisaga duch kelamiz. Bu erda, agar biz bir ilova qurilma tarkibida ikkita ilovali element bo'lsa, ikkinchi element birinchi ilovali elementsiz to'g'ridan – to'g'ri asosiy ifodaga birika olmaydi.

Ilovali elementlarning asosiy ilovaga nisbatan bunday birikishi yo'li ketma – ketlik deyiladi.

Biz tahlil etayotgan misollarimizda asosiy ifodaga birikib keladigan ilovali elementlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pincha to'g'ridan – to'g'ri, bir – biriga tobe bo'lmagan holda yagona asosiy ifodaga birikib kelishlari mumkin.

Ilovali elementlarning ana shunday bir – birlariga bog'liq bo'lgan holda yagona asosiy ifodaga birikib kelishlarini quyidagi misollar orqali isbotlab berishimiz mumkin:

5. Er stand auf, badete, machte sich zurecht, langsam, sorgfältig.
Ging auf leisen Sohlen durch Haus und Garten. Nahm wahr, die
hebräischen und arabischen Spruchbänder an den Wänden.
Nahm war, das einer das Glas der Mesuso zerschlagen und
die Zistern des Rabbi Canon zugeschüttelt hatte (L. Feuchtwanger.
Die Jüdin von Toledo, S. 386 - 387)

6. Der alte Lechner strahlte.
Nahm sein Enkel und Patin Kind, in den verschiedensten
Stellungen auf. Machte ihm ein Geschenk, das sich gewaschen

hatte. Verkaufte das Haus am Unteranger und kaufte, dafür auf
den Namen dieses jüngsten Lechner ein Einfamilienhaus
am Rande der Stadt. (L. Feuchtwanger. „Erfolg“, Seite 747).

Bu keltirilgan misollar ham bizning yuqorida keltirilgan fikrlarimizni yanada oydinlashtiradi. Bu erda har bir asosiy ifodaga ikki va uchdan ortiq ilovali element birikkan. Har bir ilovali element o'ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar ularning strukturasini kengaytirishda har xil leksik – grammatik vositalar qo'llaniladi.

Masalan ;

Er stand auf, badete, machte sich zurecht, langsam, sorgfältig.

Ging auf leisen Sohlen durch Haus und Garten. Nahm wahr,

die hebräischen und arabischen Spruchbänder an den Wänden.

Nahm wahr, das einer das Glas der Mesuso zerschlagen und die Zistern des Rabbi Canon zugeschüttelt hatte (L. Feuchtwanger. Die Jüdin von Toledo, S. 386 - 387 5 ) misolimizda bitta asosiy ifodaga uchta ilovali element o'zicha mustaqil va har biri bir – biriga bog'lab bo'lmagan holda asosiy ifodaning mazmunini to'ldirib, aniqlab, konkretlashtirib, izohlab kelmoqda.

Ularning strukturasini kengaytirishiga kelsak, ular har – xil ko'rinishga ega bo'ladi.

Masalan, bir ilovali elementning strukturasi to'ldiruvchi formasida kelgan so'z birikmalari asosida kengaytirilsa, ikkinchi va uchinchi ilovali elementlarning strukturasi esa maxsus ilova formasida keluvchi ergash gaplar shaklida kelgan ilovali elementlar hisobiga kengaytiriladi.

Birikish usuliga ko'ra ilovali elementlar asosiy ifodaga biriktiruvchi vositalar yordamida va biriktiruvchi vositalarsiz birikib keladi. Buning isboti tariqasida quyidagi misolni tahlil qilamiz:

6. Dora los bei der Nachttischlampe zum zwanzigsten Mal den Brief ,

der aus Monterrey kam. Und sie suchte die Stadt auf ihrer Tochter

Atlas. (A. Seghers. „Das Vertrauen“. S. 270).

7. Ich hab mich in Hadersfeld hineingehoben in diese Gruppe für

Prämek. Weil es gar nah liegt von Kossin (A. Seghers. „Das Vertrauen“ S. 389).

8. Er sann, wie er ihm helfen könnte. Hatte eine Idee. (L. Feuchtwanger. „Exil“, S. 229).

Keltirilgan 7-8 misollarda biriktiruvchi bog'lovchilar, ya'ni “und„ va „weil“ yordamida birikib kelgan. 9-misol namunasida esa biriktiruvchi vositalarsiz, ya'ni to'g'ridan – to'g'ri fe'l – kesim yordamida birikib kelgan ilovali element tasvirlangan. Yozma nutqda asosiy ifoda bilan ilovali element nuqta bilan ajratiladi. Lekin ayrim olimlar asosiy ifoda bilan ilovali elementni nuqta, nuqta vergul, vergul, chiziqcha, qavs, plyus, ko'p nuqta ajratib turadi deb ta'kidlashadi. Lekin bizga ma'lumki nuqta tugallangan fikrdan so'ng qo'yiladi.

Demak, ilova qurilma hodisasida faqat nuqta asosiy rol o'ynaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ilovali element funksiyasida faqat so'z birikmalari emas, balki to'liq gaplar, bog'langan qo'shma gaplar va ergashgan qo'shma gaplar ham kela oladi.

Ilova qurilma hodisasi dastlab og'zaki nutq jarayonida yuzaga kelgan. Bunda intonasiya muhim rol o'ynaydi. Yozma nutqda esa intonasiya nuqta bilan belgilanadi. N. S. Pospelovning fikricha asosiy ifoda bilan ilovali element o'rtasidagi bog'liqlikda ohang asosiy rol o'ynaydi. Buni o'rganishda ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Og'zaki nutqda katta ahamiyatga ega bo'lgan ohang yozma nutqda ham namoyon bo'lib, u ilovali elementlarni ifoda etishda nuqta bilan belgilanadi.

Ilovali element ishtirok etayotgan gaplar ovozning pasayishi va biroz ohang bilan to'xtalish yuz beradiki, buni e'tiborga olish lozim.

Jumladan, C.E.Крючков shunday degan: “ Понижение голоса и относительно большую паузуперед присоединимым элементом произносымым особым тембром”[3].

Turli xil ilova konstruksiyasining u yoki bu holda foydalanishi albatta gapirayotgan yoki yozayotgan kishining maqsadiga bog'liq. Chunki ilovali elementning avval aytib o'tilgan fikrga qo'shimcha ma'no anglatib kelishi va shu fikrning ma'noviy xususiyatini kuchaytirishi uchun ishlatiladi. Shuning uchun ham bu hodisani faqatgina og'zaki nutq jarayonida birdan yashirin ravishda sodir bo'luvchi hodisa deb tushunmaslik kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, ilova qurilma hodisasi yozma nutqda ham keng tarqalgan va bu har bir yozuvchining xususiy uslubiga bog'liq, boshqacha qilib aytganda ilova hodisaning va uning har-xil strukturaviy guruhlarning yuzaga keltiruvchi va hal qiluvchi omil bu – uslubiy omildir.

Bu hodisa adabiyotlarda keng tarqalgan.

Ilova konstruksiyasi to'g'risida ko'plab maqollar, dissertasiyalar yozilmoqda va bu masala ilmiy ishlarda, darslik va maxsus kurslarda yoritilmoqda. Lekin shunga qaramay, ilova qurilma hodisasining ba'zi bir tomonlari hali o'zining to'liq echimiga ega emas. Ilova qurilma va ilovali element to'g'risidagi tadqiqot ishlari natijasida biz sodda va murakkab strukturaviy ilova qurilma haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

Ilova element iborasi ilk bor A.F. YEfremov tomonidan ishlab chiqilgan. Ilova qurilma shunday ma'lum bo'laklarga bo'linadiki,

ularbir biriga o'xshash sodda gaplar singari ifodalanadi. Ilova qurilma atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib, bo'lish, bo'laklarga ajratish ma'nosini anglatadi.

60 yillarning oxiriga kelib ilovali qurilma atamasigako'proq e'tibor berilib, 3 qismga bo'lib o'rganilgan.

---

[3]Крючков С.Е. «О Присоединительных связах в современном русском языке» . Русский язык в школе 1978 г.

Ya'ni 1. Ilova qurilmalarning qo'shma gaplarda tuzilish xususiyati.

2. Ularning ohangga bog'liq xususiyatlari.

3. Ta'sirchanlik va uslubiy xususiyatlari.1

70 yillarga kelib ilova qurilmalarning ma'no xususiyatlariga yanada

ko'proq e'tibor berila boshlanib, tilshunoslikning bu sohasi yanada

kengayib boshladi. Bu esa ilova qurilmaning bir necha ilova

elementlarga bo'linishini aniqlab berdi.
Nemis tilshunosligida bu holat stilistik hodisa sifatida o'rganiladi. Ilovali qurilma hodisasi hozirgi nemis tili sintaksisida muhim o'rin tutadi. Nemis olimlari G. Shtarke, U. Xoberk, L. Shpiser va boshqalar ilova qurilmani gap qurilishida chetga chiqish, chetlashtirish, birikish, bo'linish yoki fikrni kengaytirib bayon etish kabi atamalar orqali tushuntiradilar. Ilmiy adabiyotlarni ko'zdan kechirish natijasida ilova qurilma hodisasi nemis tiliga xos xususiyatdir degan xulosaga kelish mumkin.

5. Ilova qurilmalar quyidagi bergilarga ega:

6. sodda yoki qo'shma gaplar og'zaki nutqda to'xtalish (pauza), yozuvda esa nuqta orqali;

7. bu bo'laklar bir-birlari bilan grammatik va semantik bog'lanish orqali;

8. ikki bo'lakli tarkibiy qism;

ajratilgan element asosiy vo'qea-hodisaniifodalanishi, bayon etilishi bilan ajratiladi.

Ilova qurilma hodisasi –bu qo'shimcha ibora bo'lmasdan,bayon

etilayotgan fikrning bo'laklarga ajratib ko'rsatilishidir. Nuqtadan keyin ifoda etiladigan fikr gapdagi asosiy ifodaga qo'shimcha ifoda hisoblanadi:

Masalan:

Ob ich das gelesen habe. Einen kleinen Artikel des Schriftstellers unter der

Unterschrift. „ Ein talentiertes Büchlein“.(E.M.Remarque)

Ein Schock konnte mich noch retten. Eine Frage. Zwei Worte.

Ba'zi ilovali elementlar to'liqsiz gaplarga ham o'xshab ketadi. Ilovali qurilmadagi gaplar asosiy ifodaga bog'liq bo'lib, u bir shaxs tomonidan bayon etilayotgan fikrni ifodalab kelib, ma'lumotlarning bir butunligini ko'rsatadi:

Masalan: Er lächelte schwach.

Ein bißchen ironisch (E.M.Remarque)

Elliptik gaplar dialogik nutqda sintaktik bir butunlikni ifoda etishda xizmat qiladi :

„Hat dich jemand gesehen?“ fragte sie.

„Ja, Eine ältere Frau“.

„Ohne Hut ?“

„Ja, ohne Hut“.

Ma'no xususiyatiga ko'ra ilovali elementlar grammatik zamon ma'nosi bir xillikni ifoda etadi. Morfologik jihatdan ilova qurilmadagi fe'lning mayl, shaxs, son kabi grammatik kategoriyalari mos kelishi lozim, aks holda u elleptik gapga aylanadi.

I Bob

## Fe'l – kesim bilan ifodalanib kelgan elementlar

Nemis adabiyotida fe'l – kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar juda keng tarqalgan. Men bitiruv – malakaviy ishimda ularning har birining strukturaviy va ma'noviy xususiyatini alohida tahlil qilaman.

Bir turdagi fe'l – kesim bilan ifodalangan ilovali elementlar.

Bir turdagi fe'l – kesim deganda bir fe'lning bir vaqtning o'zida ham asosiy ifodada,ham ilovali element tarkibida kelishini tushunamiz. Bir turdagi fe'l – kesim bilan ifodalangan ilovali elementlarni quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz.

1. Jefta sah hoch. Sah den Priester. (L. Feuchtwanger. „Die Jüdin von Toledo. Jefta und seine Tochter“. S. 508).
2. Die Veronika trug die Speisen auf. Er aß kräftig, reichlich. Trank. (L. Feuchtwanger. „Erfolg“, S. 694).
3. Sie saß aufrecht und doch locker und gelassen. Wartete. (L. Feuchtwanger. „Die Jüdin von Tolida. Jefta und seine Tochter “, S. 427).
4. Er setzte sich hin, schrieb mit der Hand. Schrieb lange (L.Feuchtwanger. „Erfolg“. S. 619).
5. Greider Endes arbeitete an der Skizze des Dorfsapostels Petrus. Arbeitete ohne großen Lust (L. Feuchtwanger. „Erfolg“. S. 393).

Bu yuqorida keltirilgan misollarda bir turdagi fe'l – kesimlarning harakat ob'ektiga taalluqli bo'lgan ichki faktorlarda kengayishini ko'rayapmiz. Ilovali elementlar harakat va holatga alohida ma'no kasb etib, ularga to'ldiruvchi va hol tusini berib keladi. Asosiy ifoda bilan ilovali element o'rtasidagi bog'liqlik eganing umumiyligi va grammatik formalar, ya'ni tuslanish, zamon, shaxs-sonda ifodalanish bilan xarakterlanadi.

Men ilova qurilma hodisasini o'rganish davomida shu narsaga amin bo'ldimki, bir turdagi fe'l – kesim bilan ifodalanib kelgan strukturaviy xususiyati o'xshash va aniqlashtiruvchilar hisobiga kengayishi mumkin.

3. Buning isboti tariqasida quyida misollarga murojaat qilamiz.

Er erzählte von seinem Streit mit Kaspar Pröckl, lächelnd, freundschaftlich . Erzählte, (sich selber ironisierend), von den

Wochen, da seine Post ihm die Welle ersetzt. (L. Feuchtwanger. „Erfolg“. S. 449).

4. Doch schon bevor er sie recht bedachte, wusste er, daß das Bruch war und daß die Frau hatte. Wusste, daß er sich allem fügen müsste, was die anordnete (L. Feuchtwanger. „Erfolg“, S. 734-735).

5. . Fe'l – kesim formasida ifodalanib kelgan formasida ifodalanib kelgan ilovali elementlar asosiy ifodadagi ish – harakatning natijalovchi vositasi sifati yuzaga kelishi mumkin.

6. Hol bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementning ham ko'pgina turlari uchrab turadi. Bu holda ular aytilayotgan fikrni voqeylik davomida o'zgarishini aks ettirib keladi va bu holat kesimlar orqali namoyish etiladi.

4-5 misollarda bir turdagi fe'l – kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarning o'xshash va aniqlashtiruvchilar ilovali elementning faqat strukturasini kengaytirib kelmasdan, balki ma'noviy xajmini ham kengaytirib kelyapti.

Shu tarzda bir turdagi fe'l – kesimning funksional imkoniyati bir vaqtning o'zida ilovali elementlar tarkibida keluvchi aniqlashshtiruvchilarning ta'sirida amalga oshishi mumkin.

Fe'l-kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, bosh bo'laklar, ya'ni ega va kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar asosiy o'rinda turadi.

Masalan:

Dann haben sie mir den Weg versperrt. Und gefragt, wie ich heisse ?

“Tanishuv” vositasida ko'pincha ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar uchraydi va ular asosiy ifoda hisoblanadi.

Jumladan:

Drei Männer saßen am Tisch. Und ein Mädchen.

Uyushgan kesimlarning bir maqsadga yo'naltirilgan holda ifodalanib kelishi ko'p tarqalgan hodisadir.

Masalan:

Hier kann man prima paddeln. Und günstig Schiffe chartern.

Und mit unseren neuen Ideen für Kuchen und Schlafräume können sie sich jetzt wirklich komplett einrichten. Und wohl fühlen.

Ilova elementda bir emas, balki bir necha kesimlar uyushib klishi mumkin. Ular doimo grammatik jihatdan mayl, zamon, shaxs-sonda moslashadi:

Gehen Sie endlich mal wieder spazieren. Entspannen Sie sich. Und rufen Sie uns gleich aus der nächsten Telefonzelle an.

Ammo ba'zan ilovali elementda zamon shakli har xil bo'lishi ham mumkin. Bu holat fe'l – kesim bilan ifodalanib kelayotgan ilovali elementning asosiy ifoda bo'laklaridagi ish-harakatning ketma-ketligi ta'sirida yuz berish holatlari kuzatiladi.

Masalan:

Wir waren für unseren Kinder verantwortlich. Sind verantwortlich.

Für ihre Chancen und für ihre Warme. Kindern gehört die Zukunft.

Ikkinchi darajali bo'laklardan farqli o'laroq, kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar ko'p qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Kesim gapdagi asosiy o'zak hisoblanadi. Uyushgan fe'l-kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar gapda alohida o'rin tutadi. Ko'pincha fe'l-kesimning grammatik shakllari bir-biriga juda mos keladi. Masalan: Ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar ko'pincha reklamada kinoyali ko'rinishni aks ettirib keladi.

Masalan:

„Mir der Rhein bei Nacht ansehen,“ sagte lächelnd ,“Ich bin Tourist. Und

Romantiker. (E.M.Remarque)

Ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar ko'pincha reklamada kinoyali ko'rinishni aks ettirib keladi.

Masalan:

Die Zeiten ändern sich. Die Kuchen auch.

Ega bilan ifodalanib keladigan ilovali elementlar ko'pincha reklama uslubida qo'llaniladi.

Masalan:

Dafür nehmen wir una die Zeit, soviel Sie wollen. Weil wir wissen, dass hinter

Traumen oft die Welt von Morgen steckt. Und ihr Erfolg. Versteckt sich.

Ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar ko'pincha reklamada kinoyali ko'rinishni aks ettirib keladi.

Masalan:

Die Zeiten ändern sich. Die Kuchen auch.

yoki:

Die Schweizer bauen die besten Uhren der Welt. Die Sachsen auch.(A. Lange Söhne.)

Inkorni ifodalab keladigan ega vazifasidagi ilovali elementlar reklamaga yanada joziba, ko'tarinki ruh beradi.

Masalan:

Fe'l-kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, bosh bo'laklar, ya'ni ega va kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar asosiy o'rinda turadi.

Masalan:

Dann haben sie mir den Weg versperrt. Und gefragt, wie ich heisse ?

“Tanishuv” vositasida ko'pincha ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar uchraydi va ular asosiy ifoda hisoblanadi.

Jumladan:

Drei Männer saßen am Tisch. Und ein Mädchen.

Uyushgan kesimlarning bir maqsadga yo'naltirilgan holda ifodalanib kelishi ko'p tarqalgan hodisadir.

Masalan:

Hier kann man prima paddeln. Und günstig Schiffe chartern.

Und mit unseren neuen Ideen für Kuchen und Schlafräume können sie sich jetzt wirklich komplett einrichten. Und wohl fühlen.

Ilova elementda bir emas, balki bir necha kesimlar uyushib klishi mumkin. Ular doimo grammatik jihatdan mayl, zamon, shaxs-sonda moslashadi:

Gehen Sie endlich mal wieder spazieren. Entspannen Sie sich. Und rufen Sie uns

gleich aus der nächsten Telefonzelle an.

Ammo ba'zan ilovali elementda zamon shakli har xil bo'lishi ham mumkin. Bu holat fe'l – kesim bilan ifodalanib kelayotgan ilovali elementning asosiy ifoda bo'laklaridagi ish-harakatning ketma-ketligi ta'sirida yuz berish holatlari kuzatiladi.

Masalan:

Wir waren für unseren Kinder verantwortlich. Sind verantwortlich.

Für ihre Chancen und für ihre Warme. Kindern gehört die Zukunft.

Ikkinchi darajali bo'laklardan farqli o'laroq, kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar ko'p qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Kesim gapdagi asosiy o'zak hisoblanadi. Uyushgan fe'l-kesim bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar gapda alohida o'rin tutadi. Ko'pincha fe'l-kesimning grammatik shakllari bir-biriga juda mos keladi. Masalan: Ega bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar ko'pincha reklamada kinoyali ko'rinishni aks ettirib keladi.

Masalan:

